

PEDAGOGIKA FAN SIFATIDA.IBTIDOIY JAMOADA TARBIYA.

Guliston Davlat Pedagogika Instituti talabasi:

Sattorova Durdona

Guliston Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi:

Xidirova Malohat

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "Pedagogika tarixi" fanining maqsad va vazifalari, uning yosh avlodni barkamol inson sifatida shakllantirishdagi poydevorlik roli hamda ibtidoiy jamoa tuzumidagi tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil aytib o'tiladi .*

Kalit so'zlar: *pedagogika,tarbiya,ibtidoiy jamoa tuzimi,mehnat tarbiya,ijtimoiy tarbiya,jamoaviy tarbiya, pedagogika tarixi*

Abstract: *This article details the goals and objectives of the science of "History of Pedagogy," highlighting its fundamental role in shaping the younger generation into well-rounded individuals. Furthermore, it explores the specific characteristics and unique features of upbringing and education within the primitive communal system.*

Keywords: *pedagogy, upbringing, primitive communal system, labor education, social education, collective upbringing, history of pedagogy.*

Pedagogika fani insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, u jamiyat taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy kuch — tajriba almashinuvi jarayonini o'rganadi. Har qanday fan kabi, pedagogikaning ham o'z ildizlari va uzoq tarixiy yo'li mavjud. Insoniyat paydo bo'lgan ilk davrlardan oq yosh avlodni hayotga tayyorlash, ularga yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni o'rgatish hayotiy ehtiyojga aylangan. Pedagogika tarixi fani 1939 yildan boshlab, pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitilmoqda . Pedagogika tarixi -pedagogik goyalarning shakllanishi ,rivojlanishi,ta'lim muassasaari tizimi,ularning faoliyati doirasidagi tarixiy tajriba ,tarixiy taraqqiyotning turli bosqichlarida pedagogik fikrlar rivoji masalalarini o'rganadi .

Pedagogika tarixi fanining vazifalari:

Kishilik taraqqiyotidagi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy, ma'naviy, ma'rifiy rivojlanishi haqida ma'lumot berish;

O'tmishdagi ta'lim va tarbiya masalalarini, texnologiyasini hamda maktab tizimidagi yuksak g'oya va tajribalarni ijodiy rivojlantirishni o'rganish;

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quv-tarbiya yo'li jarayonida buyuk mutafakkir olimlarning asarlaridagi pedagogik g'oyalarni o'rganish.[2:7]

Pedagogika tarixining ilmiy ,nazariy va milliy asoslarini puxta o'rganish o'qituvchilarning faqat pedagogik madaniyatini oshiribgina qolmay ,balki shu bilan birga ,unga pedagogik mahoratni egallashga yordam beradi.[1:192]

Mustaqillik tufayli pedagogika tarixini o'rganishda yangi-yangi qirralar ochildi:

Pedagogik g'oyalarning rivojlanishida tarixiy izchillikni amalga oshirish;

Kadrlarning ma'naviy-g'oyaviy mafkurasini shakllantirishda pedagogik qadriyatlarga suyanish;

Ta'lim-tarbiya sohasidagi qadimgi meros va umumbashariy qadriyatlar, milliy urf-odat va an'analardan foydalanish.

Pedagogika tarixini o'rganish manbalari

Arxeologik yodgorliklar;

Qo'lyozmalar;

Xalq og'zaki ijodi;

Adabiy yodgorliklar;

Hujjatlar;

Badiiy adabiyot;

Memuarlar;

Sharq va G'arb mutafakkirlarining asarlari.[1:199]

Pedagogika tarixi fani o'ziga xos ildizlarga ega:

Ta'lim-tarbiya va ma'rifatga doir g'oyalarning falsafiy ildizlari: Pedagogika tarixi fani turli jamiyatlardagi mafkuraviy qarashlarga ko'ra o'zgarib, rivojlanib, ilg'or pedagogik fikr va g'oyalar miqdordan sifat o'zgarishlarga ega bo'lgan.

Diniy-ma'naviy ildizlari: Inson kamolotidagi ma'naviyat haqida Qu'oni karim va shariat hukmlarida, Hadisi shariflarda esa ilmiy-nazariy bilimlarning tartib-qoidalari berilgan. Bu esa pedagogika tarixdagi ta'lim-tarbiya va ma'rifiy ishlarga yanada sayqal beradi.[2:5]

Hozirgi o'zbek xalqining ajdodlari bundan bir necha ming yillar oldin yashagan bo'lib, ular yuksak va o'ziga xos madaniyatni vujudga keltirishda juda katta va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgan. Dastlabki tosh qurollaridan tirikchilik uchun foydalanish, ancha takomillashgan mehnat qurollarini yasash, urug'chilik davriga kelib, xo'jalik hayoti va madaniy taraqqiyotda erishilgan yutuqlarni o'z ichiga olgan davrgacha bo'lgan tariximiz ota-bobolarimizning boy qadimiy madaniyatga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda Baqtriya, Xorazm, So'g'diyona, Marg'iyona, Parfiya hamda Parkana kabi davlatlarida turli qabila va elatlar yashagan. Ular saklar, massagetlar, so'g'diyonalar, xorazmiylar, boxtarlar, chochliklar, parkanaliklar kabi qabila va urug'lardan iborat bo'lib, hozirgi Markaziy Osiyo hududida yashovchi xalqlarning ajdodlari hisoblanadilar.[3:6]

Ibtidoiy tarbiyaning evolutsion bosqichlari

Ibtidoiy jamiyatda tarbiya insoniyatning rivojlanish darajasiga qarab o'zgarib borgan. Dastlab tarbiya faqat taqlid qilish (imitatsiya) asosida qurilgan bo'lsa, keyinchalik u maxsus tizimga aylangan:

Ilk davr: Bolalar kattalarning harakatlarini (meva terish, olovni saqlash) shunchaki takrorlaganlar.

O'rta davr: Mehnat qurollari murakkablashishi bilan bolalarga kamon yasash, hayvonlar izini ajratish kabi maxsus ko'nikmalar o'rgatila boshlangan.

So'nggi davr (Urug' jamoasi): Tarbiya jamoaviy xarakterga ega bo'lib, oqsoqollar va eng tajribali ovchilar ustozlik vazifasini bajarganlar. Tarbiyaning mazmuniy yo'nalishlari

Ibtidoiy davr pedagogikasini shartli ravishda uchta yo'nalishga bo'lish mumkin:

Jismoniy tarbiya: Omon qolish uchun zarur bo'lgan kuch, chaqqonlik va chidamlilikni shakllantirish.

Aqliy-amaliy tarbiya: Tabiat hodisalarini kuzatish, o'simliklar va hayvonlar dunyosi haqidagi ilk bilimlarni egallash.

Axloqiy va estetik tarbiya: Totemlar (muqaddas hayvonlar)ga sig'inish, jamoa sirlarini saqlash, qoyatoshlarga rasm chizish va raqslar orqali his-tuyg'ularni ifodalash

Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanining shakllanish tarixi va ibtidoiy jamiyatdagi ilk tarbiya tajribalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, tarbiya insoniyat

mavjudligining eng birlamchi va zaruriy shartidir. Tadqiqotimiz davomida to'plangan ma'lumotlar asosida quyidagi yakuniy fikrlarni bayon etish mumkin:

Tarixiy vazifa va vorisiylik: Pedagogika tarixi fani kishilik taraqqiyoti davomidagi ta'lim-tarbiyaning ijtimoiy, ma'naviy va ma'rifiy rivojlanish bosqichlarini tizimli o'rganish orqali o'tmish tajribasini bugungi kun bilan mantiqiy bog'laydi. Bu jarayon o'tmishdagi ilg'or pedagogik texnologiyalarni ijodiy rivojlantirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Falsafiy va ma'naviy ildizlar: Ta'lim-tarbiya g'oyalari turli jamiyatlardagi mafkuraviy va falsafiy qarashlar ta'sirida rivojlanib, miqdordan sifat o'zgarishlariga erishgan. Ayniqsa, Qur'oni Karim, Hadisi Shariflar va buyuk mutafakkirlar merosidagi ma'naviy-axloqiy ko'rsatmalar pedagogika tarixiga o'ziga xos sayqal berib, inson kamolotining nazariy asoslarini mustahkamlagan.

Ibtidoiy tarbiyaning fundamental ahamiyati: Insoniyatning ilk davrlarida shakllangan "mehnat orqali tarbiya" va jamoaviy hayot ko'nikmalari zamonaviy pedagogikadagi "amaliyot orqali o'qitish" tamoyillarining eng qadimgi ko'rinishidir. Ibtidoiy jamoada tarbiya alohida muassasalarda emas, balki bevosita hayotiy ehtiyojlar va ijtimoiy tajribani uzatish jarayonida amalga oshirilgan.

Tarixiy tajriba va milliy qadriyatlar uyg'unligi zamonaviy ta'lim tizimining sifati va samaradorligini kafolatlovchi asosiy mezondir.

Foydalaniladigan adabiyotlar

1. Mizayeva F.O. Pedagogika nazariyasi va tarixi. /Karimjonov O.A /Darslik Toshkent : "NIF MSH ", 2023 .-572 b.
2. B.N Qurbonova Pedagogika nazariyasi va tarixi. O'quv qo'llanma . - Toshkent : "NIF MSH ", 2024 , 460 b.
3. Umumiy pedagogika fanidan tayyorlangan o'quv -uslubiy majmua. Guliston 2024.-246 b.